



## SHAHODAT ISAXONOVANING “BIBIXONIM” ROMANIDA AYOL OBRAZI ORQALI DAVR MUAMMOLARINING BADIY TALQINI

*Mirolimjon Xamidov-*

*Filologiya fanlari doktori, dotsent (Tel: +998 91 120 01 70)*

*Ma'rufjonova Muxlisa To'lonboy qizi-Farg'ona davlat universiteti*

*Magistratura bo'limi Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

*E-mail: muxlisamarufjonova0@gmail.com (Tel: +998 50 570 07 21)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tarixiy romanlarida ayol obrazining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asosiy diqqat markazida Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” romanidagi ayol siymolari – Shod Mulk, Bibixonim, Gavharshodbegim obrazlari turadi. Maqolada ushbu obrazlar orqali XIV asr Movarounnahr hududidagi ijtimoiy-siyosiy muhit, ayollarning jamiyatdagi o'rni, ruhiy kechinmalari va tabaqaviy tafovutlarning ta'siri yoritiladi. Tadqiqot davomida ayol obrazlari timsolida davr muammolari, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar, onalik, vafodorlik, sabr-toqat kabi fazilatlarning badiiy ifodasi ochib beriladi. Romandagi tarixiy shaxslar hamda badiiy to'qima uyg'unligining asar realizmini ta'minlashdagi o'rni alohida tahlil qilinadi. Kalit so'zlar: ayol obrazi, tarixiy roman, badiiy talqin, Shod Mulk, ijtimoiy tafovut, ruhiy kechinma, adabiy obraz, Bibixonim.

Ayol jamiyatning bir bo'lagidir. U nozik xilqat, ona, farzand, rafiq va eng muhimi ayol maqomidagi bir shaxs. Ayolning nafaqat oilada, balki, jamiyatda, davlat boshqaruvida o'z o'rniga egaligiga tarix guvohlik beradi. Adabiyotda ayol obrazi yuksak badiiy va falsafiy ahamiyat kasb etadi. U ijodkor dunyoqarashi va davr talqinini ifodalashda o'ziga xos timsoldir. Tarixiy romanlarda ayol obrazi orqali muayyan davr muammolari, ijtimoiy o'zgarishlar, insoniy munosabatlar va



ruhiy kechinmalar keng ochib beriladi. Ayol obrazining turli rakurslarda tasvirlanishi esa o'sha davrning ruhiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Xususan, o'zbek tarixiy romanlarida ayol qiyofasini tarixiy-badiiy kontekstda yoritish orqali milliy qadriyatlar, an'analar va jamiyatdagi o'zgarishlar ko'z oldimizda jonlanadi. Shu ma'noda, adiba Shahodat Isaxonovanning "Bibixonim" romani bu janrdagi romanlar orasida alohida o'rin tutadi. Asarda XIV asrda Movarounnahrda murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat fonida ayol taqdiri, uning ruhiy olami, jamiyatdagi o'rni nozik badiiylik bilan yoritilgan. Muallif Bibixonim, Shod Mulk, Gavharshodbegim obrazlarida faqatgina tarixiy shaxslarni emas, balki minglab o'zbek ayollari taqdirini mujassamlashtiradi. Tarix sahnasidagi siyosiy vaziyat va o'sha davrdagi ijtimoiy voqelikni badiiy talqin qilinishi ushbu tarixiy siymolarning tarixiy jarayonlardagi faol ishtirokini ochib berishga xizmat qiladi. Asar orqali o'quvchi nafaqat tarixiy shaxslar hayoti bilan tanishadi, balki o'sha davr ijtimoiy-psixologik muammolari, ayolning jamiyatdagi o'rni va insoniylik fazilatlari haqida chuqur mulohaza yuritish imkoniga ega bo'ladi. Professor Zokir Rahimov ta'kidlaganidek, tarixiy janrning asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, yozuvchi kitobxon ko'z o'ngida o'sha davr ruhiyatini tiriltira olishi kerak. Romanda o'sha davr muhitini tasvirlash, xalqning ijtimoiy-madaniy hayotini badiiy talqin qilish, davrning ijtimoiy va siyosiy muammolarini yuzaga olib chiqish aynan shu konsepsiyaga xizmat qila oladin. Asarda siyosiy nizolar va keskin kurashlar bilan birga ayollar taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy muammolar ham adibaning nigohidan chetda qolmaydi. Bu masala, birgina Shodmulk obrazi misolida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Temuriy shahzodalardan biri bo'lmish Halil sultonning rafiqasi bo'lish bilan birga Turon malikasiga aylangan bu ayol taqdirida oddiy xalqning ijtimoiy turmushiga oid asardagi muhim bir davr muammosi o'z badiiy aksini topadi. O'sha davrdagi sharoit taqozosi bilan Shod Mulkning yo'qsil otasi qizini amir



Sayfiddinga sotib yuboradi. Aynan shu voqea kambag'al temirchining farzandi bo'lgan Shodmulk taqdirida keskin burilish yasaydi.

Ota-onasidan erta ayrilgan Shod Mulk Samarqandga kelish imkoni bo'lishi bilan necha yil sog'inib kutgan qadrdon diydorlarini ko'rishga oshiqadi. Ammo, uzoq yillik ayriliq farzand bilan ota-ona o'rtasida begonalik hissini paydo qilgan edi. Adiba romanda bu holatni mahorat bilan tasvirlaydi:

“Ota, dedi nafasi bo'g'ziga tiqilib, tanimadingizmu, ota?!” Ustaning hayronlik bilan tikilayotgan sinchkov ko'zlarida nimadir yiltillab, bir dam hamma narsani unutdi. Lekin har qancha urinmasin, shohona liboslarda tovus kabi tovlanayotgan, chehrasi oy kabi navnihon juvonni qiziga mengzay olmadi.

– Shod Mulk... – usta og'zidan hayrat to'la mana shu so'zdan boshqa jo'yali so'z chiqmadi. Shoshilib qolganidan aqli-hushi boshidan uchgan kuyida so'z axtarib, yonidagi jiyaniga o'girildi.

– Uni tanidingmu?! O'zimizning Shod Mulk!

Jiyanining ko'zlarida hayrat bilan birga quvonch o'ynadi. U ham taniy olmagan bo'lsa-da, indamay, hurmati uchun Shod Mulkka ta'zim qildi. Usta ko'rishish kerakligini endi tushindi, lekin o'zining ahvolidan hijolat chekib taysallandi.

Amakivachchasining ta'zimi, otasining Shodmulk oldida o'z ahvolidan uyalishi, albatta, samimiyatdan yiroq edi. Shodmulk ularga qanchalik o'zini yaqin tutishga urinmasin, u endi yaqinlari nazarida Temuriy malikalardan biri, yuqori tabaqadagi hurmatli bir ayol bo'lib ko'rinardi, xolos.

Romanda tasvirlangan yana bir ayol obrazi- Shod Mulkning onasidir. Bu ayol siymosida go'dak farzandidan ayrilishga majbur bo'lgan ona obrazi aks etgan. Qizalog'i bolaligida murg'ak qalbi bilan ertaklardagi shahzodani orzu



qilgandi. Yillar o'tib qizini o'sha orzusiga yetgan, shahzodasiga erishgan malika hoida ko'rgan ona daf'atan uni taniy olmaydi. Chunki ona-bola taqdir taqozosi va ijtimoiy muhit tufayli bir biridan ayrilgan paytda Shodmulk hali balog'atga yetmagan, ona esa yillar davomida qizining siymosini faqat tasavvurida yaratgan edi.

Hovlidagi shovurni eshitib, ostonaga oyoq yalang yugurib chiqqan onasi bir zum joyida qotib qoldi. Qizidan biron belgi topmoq ilinjida unga termilar ekan, oppoq yuzlarini, qaldirg'och qanotidek ingichka, qora qoshlarini, lablarini, xayolidagi Shod Mulkning siymosi bilan solishtirdi va bu a'zolarining barchasida balog'at yoshiga yetib, mukammallashgan begona vujudan boshqa narsani ko'rolmadi. Shod Mulk onasining ikkilanibgina talpinayotgan titroq yelkalarini mahkam quchoqlab, yuzlaridan o'pdi. Nafasi bo'g'ziga tiqilganicha, ranglari buzilib qalt-qalt titrayotgan ayol esa mushk-anbar taratayotgan shohona ko'ylaklardan ham, yuz-ko'zi aralash urilayotgan kapalaklar qanotidek mayin harir ro'mollardan ham, hatto bo'ynini quchgan olmos bilakuzukli mayin va issiq qo'llardan ham negadir yaqinlik tuymadi.

Onasining eski jilqursga uyalibgina ko'rpacha tashlashi, otasining mulozamat bilan goh senlab, goh sizlab gapirishi go'yo ular o'zlarini uylariga qizlari emas, hurmatli bir mehmon kelgandek his qilayotganlarini bildirardi. Ota-onasi Shod Mulkga nisbatan yaqinlik tuymas, o'zlarini ancha noqulay his qilayotganlari bilinib turardi.

Bu og'ir qismat nafaqat bu oilaning, balki butun saltanatda yashovchi kambag'al oilalar boshiga tushgan edi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'sha davrda yashovchi yo'qsil oilalarning qizlari taqdiri o'zbek adabiyotidagi yana ikkita buyuk asarda ham keltirib o'tilgan.



Oybekning “Navoiy” romanidagi Dildor obrazi ham, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidagi Robiya obrazi ham qaysidir ma’noda Shod Mulkga taqdirdoshdir. Faqat ularning Shod Mulkdan ajratib turuvchi jihati shundaki Dildor va Robiya obrazlari o‘z uylaridan bosqinchilar tomonidan zo‘rlilik bilan olib ketilgan chorasiz ayollarni gavgdalandiradi.

Adabiyotshunos olima Nodira Matmusayeva "Bibixonim" romani haqida fikr yuritar ekan, odatda, tarixiy shaxs obrazini yaratishda hayotiy haqiqat va badiiy to'qima sintezida bu ikki talqinning uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi va asar realizmini ta'minlashga xizmat qiladi ." Bibixonim" romanida Amir Temur, Xalil Sulton, Shod Mulk, Mirzo Ulug'bek, Xonzoda begim, Sulton husayn, Xoja Ahmad Tusiy singari tarixiy shaxslar obrazi bosh qahramon Saroymulxixonimning xarakter qirralarini to'laonli tasavvur qilish, ana shu obrazlar vositasida davr hayotini haqqoniy ko'rsatish, xalqning ma'naviy qiyofasini ochib berishga ko'maklashadi, deb yozadi. Darhaqiqat, adiba bu obrazlar orqali o‘z romanida xalq va saroy hayotiga oid davr muammolarini mahorat bilan yoritib bera olgan.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy romanlarda ayol obrazining badiiy talqini orqali jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, insoniy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlar chuqur ochib beriladi. Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” asari bu borada muhim namunadir. Muallif ayol obrazlari orqali tarixiy haqiqatlarni o‘quvchi qalbiga yaqinlashtiradi, ularning ichki dunyosi va hayotiy kurashlarini yuksak badiiyat bilan tasvirlaydi. Ushbu asar orqali o‘quvchi nafaqat o‘tmishni anglaydi, balki zamonaviy jamiyatda ayolning o‘rni haqida ham chuqur mulohaza yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi .

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1 . Rahimov Z. Tarixiy romanda syujet va xarakter // Fardu ilmiy xabarlari. – 2022. – № 5. – B. 110.



2 . Isaxonova Sh. Bibixonim: roman. – Toshkent: Davr Press, 2011. – B. 22–  
23.)

3 . Ayol Ichki Dunyosi Tasvirlanishining Badiiy Talqini | Miasto Przyszłości

<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/5564>